

Bobojonova Feruza Xayatovna
Buxoro davlat universiteti dotsenti, t.f.n.
feruzahayatovna@mail.ru
0000-0002-3255-2286

BUXORO TARIXIDA SOVETLAR DAVRIDAGI TA'LIM SOHASIDA OLIB BORILGAN ISHLAR TAHLILI

Annotatsiya. Maqolada Buxoro tarixida sovetlar davridagi ta'lim sohasida olib borilgan ishlar tahlili haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, sovet hokimiyati yillarida ta'lim tizimidagi islohotlar, maktablarning tashkil etilishi va ularning kommunistik mafkura siyosati ta'siriga olinishining oqibatlarini hamda natijalari, ta'limdagi kamchiliklar manbalar asosida ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Buxoro, kommunistik mafkura, sovet maktablari, lotin alifbosi, ta'lim, maktab, muallimlar, boshlang'ich maktab, o'rta maktab, ma'rifat.

АНАЛИЗ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СФЕРЕ ОБРАЗОВАНИЯ В СОВЕТСКИЙ ПЕРИОД В ИСТОРИИ БУХАРЫ

Аннотация. В статье представлены сведения о деятельности, проводившейся в Бухаре в 1925-1940 годах по направлению развития народного образования. Также на основе источников были научно проанализированы реформы системы образования, проведенные в годы Советской власти, последствия и результаты организации школ и ее влияние на коммунистическую идеологическую политику, недостатки образования.

Ключевые слова. Бухара, коммунистическая идеология, советские школы, латиница, образование, школа, учителя, начальная школа, средняя школа, образование.

ANALYSIS OF EDUCATIONAL ACTIVITIES DURING THE SOVIET PERIOD IN THE HISTORY OF BUKHARA

Annotatsion. The article provides information about the activities carried out in Bukhara in 1925-1940 in the direction of development of public education. Also, the reforms in the educational system carried out during the years of Soviet power, the consequences and results of the organization of schools and its influence on the communist ideological policy, educational deficiencies were scientifically analyzed based on the sources.

Key words. Bukhara, communist ideology, Soviet schools, Latin alphabet, education, school, teachers, primary school, secondary school, education.

Kirish. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng ta'lim sohasida ulkan yutuqlar qo'lga kiritmoqda. Yaqin o'tmishga nazar tashlaydigan bo'lsak, sovet mustamlakachiligi davrida Buxoro hududida sanoqli ta'lim muassasalari bo'lib, ularning aksariyati talab darajasida bo'lmagan. Ularda yetishib chiqqan mutaxassislar mamlakat aholisining juda oz qismini tashkil etgan. Sovet hukumati o'zbek xalqi uchun yot bo'lgan kommunistik mafkura bilan millat ongini zabt etishga harakat qilgan.

Asosiy qism. XX asr 20–30 yillarida mamlakatimiz ta'lim tizimi murakkab va ziddiyatli davrni boshidan kechirdi. Bu davrda sovet hokimiyati "shaklan milliy, mazmunan sotsialistik" madaniyat barpo etishga kirishdi. Sovet davlati yangi tipdagi maktablar ochar ekan, avvalo o'ziga sodiq bo'lgan kadrlarni shakllantirishga harakat qildi. Milliy g'oyalar chetga surilib, o'rniga kommunistik mafkura joriy qilindi. Sovet maktablarida asosiy e'tibor g'oyaviy-mafkuraviy tarbiyaga qaratildi.

O'zbekistonda 1925–1940 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish yo'lida katta ishlar amalga oshirildi, bu orada ikki marta (1929, 1940) alifbo almashinuvi yuz berdi. 1929-yil 1-dekabrda O'zbekiston arab yozuvidan lotin alifbosiga o'tdi. Lotin alifbosiga o'tilishi tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, XX asrda O'zbekiston tashkil topishi bilan bu yerda shakllangan millat –

o'zbeklar uchun yozma til ishlab chiqish muammosi ko'tarildi. Bungacha o'zbeklar hamda uning ajdodlari arab xatiga asoslangan fors alifbosidan foydalanib kelgan edi. Zamon o'zgarishi, til zamonaviylashishi va boshqa omillar tufayli alifboni qayta ko'rib chiqishga ehtiyoj tug'ildi.

1926-yilgi Boku s'ezdida barcha turkiy xalqlar uchun yagona lotin alifbosi joriy etilishi haqida qaror qabul qilindi. Qaror ijrosini O'zbekistonda ta'minlash uchun bir qancha alifbo loyihalari ilgari surildi. Ular 1929-yil may oyida Samarqandda bo'lib o'tgan imlo konferensiyasida ko'rib chiqildi. Konferensiyada rus turkologlari Aleksandr Samoylovich, Lev Shcherba, qrimtatar tilshunosi Baqir Cho'bonzoda, o'zbek olimlari Sadriddin Ayniy, A.Fitrat va boshqalar qatnashdi.

1928-yilda Yangi alifbo markaziy qo'mitasi alifbo loyihasini taklif etgan. Muhokamalar natijasiga ko'ra: o'zbek tilini yozuvda ifoda etish uchun 34 harfdan iborat lotin alifbosi qabul qilindi; o'zbek adabiy tili qipchoq shevalariga asoslanishi belgilandi; yozuvda singarmonizm – unlilar uyg'unligi aks etishi, barcha o'zlashma so'zlar bu qonuniyatga moslab yozilishi tasdiqlandi.

Shu tariqa yangi o'zbek tili paydo bo'ldi. Samarqand konferensiyasida 29 banddan iborat imlo qoidalari ishlab chiqildi. 1929- yil 1-dekabrden lotin yozuviga rasman o'tildi. Demak, 1929-yildan boshlab lotin yozuvidagi o'zbek alifbosida o'qitish amalga oshirilgan. Arab imlosida savod chiqarishdan ko'ra lotin imlosida savod chiqarish ancha oson bo'lgan va ko'p vaqtni talab qilmagan.

O'zbekiston SSR MIQ 1928-yilning avgustida "Yangi o'zbek yozuviga o'tish to'g'risida" qaror qabul qildi va yangi alifboga o'tishni tugallash muddatini 1930-yilning oxiri deb belgiladi. Mazkur tadbirning ayni shu paytda o'tkazilishi xalqimizga, shu jumladan buxoroliklarga ham juda og'ir yuk bo'lib tushdi. Chunki bu tadbir juda katta mablag'larni talab etar edi. O'sha davr taqozosi bilan yangi o'zbek alifbosini o'rganishni istamagan kishilar esa "savodsiz" deb e'lon qilingan.

Savodsizlikni tugatish uchun hammasi bo'lib ikki yilu to'rt oy vaqt berildi, tabiiyki, bunday qisqa muddatlarda buni bajarib bo'lmasdi. Buning ustiga, o'qituvchilarning yetishmasligi, maktablar uchun binolarning deyarli yo'qligi, darsliklar va o'quv qurollarining yo'qligi bu vazifani belgilangan muddatlarda bajarish mumkin emasligini ko'rsatdi.

Demak, 1929-yilida o'zbek jamiyati arab yozuvidan lotin yozuviga o'tgan edi. Lekin bu yozuv uzoq turmagan va 5 yildan keyin kichik o'zgarish kiritilgan. Lotin yozuvining birinchi hayotiga shu tariqa 1940-yilda xotima yasalgan va shu yildan to' mustaqil O'zbekiston davrigacha kirill yozuvi amalda bo'lgan. Shu tariqa 1940-yilning 8-mayida O'zbekiston SSR Oliy Sovetining III sessiyasida kirillcha grafikaga asoslangan o'zbek alifbosi tasdiqlandi. Ushbu alifboni to'liq joriy etishning so'nggi muddati 1942-yilning 1-yanvari etib belgilandi.

Sovetlarning ta'limga bunchalik katta e'tibor berishining o'ziga yarasha sabablar bor edi. Aholining savodini chiqarish orqali sovet tuzumining afzalligini ko'rsatish, xalqni kommunistik mafkura asosida tarbiyalash, targ'ibot-tashviqot ishlarini mumkin qadar keng tabaqalarga yetkazish, kichik millatlarning e'tiborini qozonishni mo'ljallashgan edi. Shubhasiz, bu kabi tadbirlar sovetlarning xalq o'rtasidagi obro'yini ko'tarib, ularning hokimiyatini mustahkamlar, kommunistik aqidalarni kuchayishiga xizmat qilar edi. Buxoroda 1930-yillarning oxiriga kelib 82 ta boshlang'ich, to'liqsiz o'rta va o'rta maktablar faoliyat ko'rsatardi.

Buxoroda "Milliy inqilob" yillarida savodsizlikni tugatish yo'lida ko'p ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 1925-yilning iyun oyida Buxoroda "Yo'qolsin savodsizlik" jamiyati tashkil etildi. 1925-yilda savodsizlikni tugatish maktablarida 55 kishi, o'qituvchilarni tayyorlash kurslarida 20 kishi, sovet partiya maktabida 10 kishi o'qigan bo'lsa, 1926-yilda ularning soni deyarli uch barobariga ko'payib, bularning barini xotin-qizlar tashkil etgan.

Buxoroning tumanlari misolida oladigan bo'lsak, 1920-1930 yillarda Peshko' tumaniida 1 ta to'liqsiz o'rta maktab, Buxoro tumanida 3 ta to'liqsiz o'rta maktab tashkil etilgan. Boshlang'ich maktabda har bir o'quvchiga qilinayotgan harajat shaharda 48 so'mga, qishloqlarda esa 57 so'mga to'g'ri kelgan. O'zbekiston SSR XKS raisi F.Xo'jaevning Sovetlarning 3-qurultoyidagi ma'ruzasida e'tirof etilganidek, birinchi bosqich maktabga kirgan har 100 boladan 50 nafarigina, ya'ni 50 foizigina uni tugatib chiqmoqda, qolgani esa tashlab ketmoqda, qishloq joylarida esa 60

16 foizi qolib, 40 foizi maktabni tashlab ketmoqda, texnikum (bilim yurti)larda bu raqam 35 ni tashkil etib, 65 foizi o'qimoqda edi.

1925-1930 yillarda O'zbekiston maktablarining muallimlar bilan ta'minlanish darajasi qoniqarli emas edi. 1926-yilda ta'lim tizimidagi vaziyat haqida UzSSR XKS Raisi F.Xo'jaev achinish bilan: "Oblastlarimizda aholining ko'pchiligi maktablarga borib o'qishni sira istamayotir, ikkinchidan, pedagog xodimlar yo'q. Maktablar ochish mumkin-u, ammo muallimlarni topib bo'lmaydi. Uchinchi, darsliklar yo'qligi ham juda yomon ta'sir qilmoqda. Muallimlarni ham, darsliklarni ham tayyorlamoq uchun bu ishga ancha vaqt kerak. To'rtinchidan, shunisi qiziqki, mana shu xalq maorifi ishiga jon-jahdi bilan kirisha oladigan xodimlar shu vaqtgacha yo'q. Siyosatchilar qancha desangiz topiladi. Oliy o'quv yurtlarini va kommunistik universitetlarni bitirib chiqatganlarning hammasi siyosatchi bo'lib ketmoqdalar", deb to'g'risini aytgan edi.

1930-1931 yilga kelib umumta'lim maktabidan tashqari, politexnik va kasb hunar maktablari ham tashkil etildi. B ulardan tashqari, hunarmandchilik bilim yurtlari, dehqon yoshlar maktabi, turli xil o'quv kurslari tashkil etilgan. Masalan, 1931-yilda Buxoroda 90 kishilik, Kogonda 50 kishilik ikki oylik savdo xodimlari tayyorlov kurslari tashkil etilgan.

1930-yillarda Buxoroda ishchi fakultetlari va kechki maktablar faoliyat ko'rsatgan. Masalan, Buxoro ipakchilik fabrika huzurida kechki maktab bo'lib, uning o'quvchilarining 65 foizini o'zbeklar tashkil etgan. Shu vaqtda Buxoro shahrining har ming nafar aholisiiga 150 nafar o'quvchi to'g'ri kelgan. Buxoro viloyat xalq ta'limi uchun 1941 yilda 29,4 million so'm, 1945 yilda 53,7 million so'm mablag' davlat byudjetidan ajratilgan.

1930-yillarning boshida savodsizlikni tugatish kampaniyasi avj olgan bir vaqtda, sanoat korxonalarida (shaharda)gi ishchi-xizmatchilar o'rtasida o'zbek tilini o'rganishga ham hukumat darajasida e'tibor berilgan. UzSSR Ishchi-dehqon Inspeksiya Presidiumining 1931-yil 16-yanvardagi qarorida shunday deyilgan: "O'zbek tilini o'rganishni tartibga solish uchun eng qat'iy choralarni qo'llash, mashg'ulotlarga qatnashmaganlarni hukumatning qaroriga muvofiq xizmatdan bo'shatishgacha bo'lgan javobgarlikka tortishni qo'llash talab etiladi."

1932-yilda Buxoro shahrida tashkil etilgan siyosiy o'quvida qatnashgan 602 a'zo va 801 nafar nomzodlardan 257 kishi savodsiz ekanligi ham savodsizlikni tugatish jarayonining qanday holatda ekanligini ko'rsatib turibdi. Maktabda o'quvchi va darsliklar yetishmagan. Bauman tuman maorif bo'limi Uznashr Buxoro bo'limi bilan 57 ming so'mlik shartnomani tuzishga qaramay oktyabr oyi oxirida 20 ming so'mlik narsa oldi, ammo kitob, daftar va qalamdan darak yo'q edi.

1936-yil 7-aprelda Buxoro okrugi partiya tashkilotlari faollarining yig'ilishi bo'lib, u tuman va shahar aholisi o'rtasida savodsizlik va chalasavodlik masalasini ko'rib chiqdi. Yig'ilishda 1936 yilda savodsizlik va chalasavodlikni tugatishga qaror qilindi. 1938-yilning 24 iyunida bo'lib o'tadigan UzSSR Oliy Sovetiga saylovlargacha Buxoro shahri aholisini yoppi savodli qilish uchun keng qamrovda ish olib borilgan. 1938 yil aprelda ham shaharda 4227 nafar savodsiz va chala savodlar borligi, shundan 1318 nafari maktablarga tortilmaganligi hamda shahardagi tashkil etilgan "Kultshtab" ishini yanada jonlantirish lozimligi qayd etilib, korxonalar, muassasa va maktablar rahbarlariga qat'iy topshiriqlar berilgan.

Ikkinchi besh yillik (1933-1937)ning oxiri-uchinchi besh yillik (1938-1942)ning boshlarida Buxoro shahri aholisining qariyb savodli bo'lgan edi. 1930 yillarda xalq ta'limining rivojlanishida bir qator kamchiliklar va jiddiy xatoliklarga ham yo'l qo'yildi. UzSSR XKS 1930 yil 14 martda "UzSSR maktabgacha tarbiya muassasalariga yurishni tashkil etish to'g'risida"gi masalani muhokama qildi va qaror qabul qildi. Joylarda bu qarorni amalga oshirish uchun amaliy tadbirlar ishlab chiqildi. Faqat qishloq maktablarida emas, balki Buxoro shahridagi maktablarda ham o'quvchilarning davomati va darslarni o'zlashtirish darajasi qoniqarsiz edi. Ayniqsa, qizlarni maktabga jalb etish yomon ahvolda bo'lib, Kogonda 58% qizlar maktabga tortilmagan edi. "Ba'zi joylarda odamlar shu darajaga borib yetdiki, 7-10 yashar o'g'il va qiz bolalarning birontasining ajdodlaridan biri savdogar yoki do'kondor bo'lib chiqqanligi uchungina ularni birinchi bosqich maktablaridan chiqarib yubormoqdalar. Biz bunday direktiva bermaganmiz, bunday qilish yaramaydi" - degan edi UzSSR XKS raisi F.Xo'jaev.

Buxoro okrugi Vobkent tumanida hammasi bo'lib 1934-1935 o'quv yilida bitta to'liqsiz o'rta maktab va 159 guruhga ega bo'lgan 30 ta boshlang'ich maktab bo'lib, ulardan 10 tasi quvg'in (quloq) qilingan boylarning uyiga joylashgan va binolar maktab uchun mos kelmas edi. Romitanda 1931-1932 yilda 17 ta maktab faoliyat ko'rsatgan. 1934-1935 o'quv yilida tumanlardagi 8 ta qishloq Sovetida maktab yoshidagi 3494 boladan 2285 nafari yoki 66 foizigina maktabga jalb etilgan. Qo'rg'on, Romitan, Qalaychorbog', Chelong'u kabi qishloq Sovetlarida o'quvchilarning davomati bor yo'g'i 44 foizni tashkil etgan. Bundan ham yomoni, ayrim kolxozlarda o'quvchilar umuman darsga kelmaganligi holati ham qayd etilgan. Masalan, "Voenniy" kolxozida 1934 yilning 24 noyabrida bitta ham o'quvchi darsga kelmaganligi bois mazkur maktabda dars bo'lmagan.

Shunday faktlar ham qayd etilganki, ayrim maktablarda o'quvchilar 3-4 yillab bir sinfda o'qishgan, sinfdan-sinfga ko'chirilmay qayta-qayta shu sinfga o'qitilavergan. Romitan tumanidagi Romitan qishloq Sovetiga qarashli bo'lgan maktablarda 1934-1935 o'quv yillaridagi o'zlashtirish darajasi zo'rga 43 foizni tashkil etgan.

Maorif sohasidagi barcha kamchiliklar o'sha davrda (1937-1938) "Xalq dushmanlari"ning ishi deb baholangan. Aslini olganda, xalq ta'limi tizimidagi muvaffaqiyatsizliklarning bosh aybdori - nomutanosiblik bilan xo'jalik yuritish tizimi bo'lgan. Faqatgina 1937 yilning o'ziida respublikaning Qo'qon, Samarqand va Buxoro shaharlaridan 50 dan ortiq o'qituvchi va maktab direktorlari "Xalq dushmani" sifatida "fosh" etilgan, vazifasidan bo'shatilib, qatag'on qilingan: 1938 yilning 5 oyi ichida birgina Kogon tumanida 3 nafar rahbar almashtirilgan.

1938 yilning 3 apreliida UzSSR XKS va MIQ ning "O'zbekiston maktablarida va ruscha bo'lmagan boshqa maktablarida rus tilini majburiy o'rganish haqida"gi qarori e'lon qilindi. Qarorni ijro etish yuzasidan 1938 yil aprelda Buxoro viloyatida rus tili o'qituvchilarining ixtisosligini oshiradigan bir yarim oylik kurslar ochilgan.

Shu jumladan, Buxoro shahar maorif bo'limida 120 nafar o'quvchi uchun, 5-pedagogika bilim yurtida 90 nafar o'quvchi uchun, Termiz shahar maorif bo'limida 60 nafar o'quvchi uchun, Termiz shahar maorif bo'limida 60 nafar o'quvchi uchun ana shunday kurslar tashkil etilgan. Shu jumladan, 16-pedagogika bilim yurtida 70 o'quvchi uchun (Buxoro.sh.), davlat pedinstitutida 105 o'quvchi uchun (Buxoro.sh.), o'qituvchilar institutida 70 o'quvchi uchun (Buxoro.sh.), 17-pedagogika bilim yurtida 70 o'quvchi uchun (Qarshi), shahar maorif bo'limida 35 o'quvchi uchun (Qarshi), shahar maorif bo'limida 70 o'quvchi uchun (Kogon.) maxsus kurslar tashkil etilgan.

Ushbu qarorni amalga oshirish ham osonlik bilan bo'lmagan. Joylardagi shart-sharoit talabga javob bermagan. Jumladan, rus tili o'qituvchilariga darslik, ko'rgazmalar yetishmagan. Shofirkon, Buxoro va boshqa tumanlarda rus tili darslari zaruriy darsliksiz olib borilaverilgan, ya'ni "og'zaki" tarzda dars o'tilgan. Buxoro viloyatining Konimeh, Shofirkon kabi boshqa tumanlarda maxsus bino va kerakli jihozlarning yo'qligi tufayli darslar ikki smenada olib borilgan va o'quvchilar hech narsa to'shalmagan yerda (tuproq ustida) o'tirib o'qishgan.

1938 yilning 19 martida UzSSR XKS va MIQ va UzKP (B) UzSSR Maorif Komissarligiga Toshkent, Samarqand, Buxoro, Andijon va Xorazmga 2000 nafar rus tili o'qituvchilarini tayyorlovchi kurslarni tashkil etish topshirildi va pedagogika bilim yurtini tugatgan 800 talaban tanlab olib, ularni qisqa fursatda maxsus kurslarda rus tilini o'rganish metodikasi bo'yicha o'qitishni tavsiya etdi.

1940 yilning 17 oktabrida UzSSR Maorif Xalq Komissarligining maktab ta'limiga doir buyrug'i chiqadi. 1939-1940 o'quv yili O'zbekistonning bir qancha boshlang'ich va o'rta maktablari o'qituvchi va tarbiya ishlari sohasida yaxshi natijalarga erishdilar.

Buxoro oblast G'ijduvon rayon G'adaniy qishloq sovetidagi Lenin nomli to'liqsiz o'rta maktab yoshidagi bolalarning 100 foiz o'qishga tortilishi amalga oshdi. O'tsevg'a qarshi keskin kurash olib borish natijasida o'quvchilarning hammasi (475 bola) o'qish yili oxirigacha o'qidi. Pedagogika kollektivining samarali ishi maktabning yuqori o'zlashtirish (99,3 foiz) darajasiga erishishga imkon berdi. Maktab uchastkasi ko'kalamzorlashtirilgan. O'quvchilar yosh tabiatshunoslar to'garaklariga tortilgan. Maktabning o'qituvchilari o'zlarining siyosiy va maxsus ma'lumotlarini oshirish uchun tizimli ravishda shug'ullanishgan.

Yuqorida ko'rsatilgan maktablarning o'qitish va tarbiya ishlarining yaxshi ko'rsatkichlari va yuqori o'zlashtirish uchun kurashda olib borilgan katta ishlarni inobatga olib, UzSSRning 8 ta maktabi pul bilan mukofotlash to'g'risida buyrug' chiqarildi. Shu 8 maktabdan biri Buxoro oblast G'ijduvon rayon G'adaniy qishloq sovetining Lenin nomidagi to'liqsiz o'rta maktabi 10.000 so'm bilan mukofotlandi.

1940 yillardagi matbuotga nazar tashlasak, O'zbekistondagi viloyatlar o'rtasida musobaqa shartnomalari mavjud bo'lgan. Sher Mo'minovning "Buxoro-Samarqand musobaqasi" deb nomlangan maqolasida: "Yaqinda Samarqand shahar maorif bo'limi Buxoro shahar maorif bo'limi bilan ikki o'rta maktab o'rtasida tuzilgan musobaqa shartnomasining bajarilishini tekshirish uchun maxsus kishilar yuborgan edi.

O'qitish va tarbiya ishlarining qo'yilishi bilan tanishish maqsadida o'tkazilgan o'zaro tekshirish Buxoro shahar maktablarida bo'lgan anchagina kamchiliklarni aniqlashga yordam berdi. Roza Lyuksemburg nomli o'rta maktabda o'qitish-tarbiya ishlari juda oqsab qolgan. Maktab direktori Aronov, ilmiy bo'lim mudiri Yusupov o'rtoqlar maktabdan tashqari tarbiya ishlarini yaxshilash uchun harakat qilmaganlar. Ota-onalar o'rtasida tushuntirish-ommaviy ish olib borilmagan. Maktabda tashkil qilingan to'garaklarda mashg'ulot juda kam o'tgan. Ulgurmagan o'quvchilar bilan ishlash unutilgan. O'qituvchilarning ko'pchiligi ishga beparvolik bilan qaraganlari sababli bolalar o'rtasida tartib-intizom bo'shashib ketgan. IV sinf o'qituvchisi Pakanaeva darsga mutlaqo tayyorliksiz kirar ekan. Ushbu o'qituvchi tomonidan yozilgan qisqagina diktant matnida 15 xato uchradi.

Maksim Gorkiy nomli maktabda esa o'quvchilar davomati juda pasayib ketgan. Sinf jurnallarida baholarning qo'yilishi juda tartibsiz. Maktabdan tashqari tarbiyaviy ish yo'lga qo'yilmagan. Oktyabr nomli maktab rahbarlari esa o'quv yoshdagilarni to'la tortish uchun g'ayrat qilmaganlar. Maktab territoriyasida shu kungacha o'qishga tortilmagan 12 bola bor.

Ximiya o'qituvchisi Xamidov darsni mazmunli va qiziqarli qilib o'tkazish uchun lozim bo'lgan vositalardan foydalanmaydi, o'quvchilar bilan bo'lgan da'gal muomasi bilan bolalarni juda bezdirib yuborgan. Shuning natijasida ximiya fanidan ko'p o'quvchilar yomon baho olganlar. Mana bunday kamchiliklar Lunacharskiy, Stalin nomli va "KIM", "1-nchi may" maktablarida uchraydi. Tekshirish natijasida aniqlangan bu kamchiliklar shahar maktablaridagi direktor va ilmiy bo'lim mudirlarining yig'ilishida keng muhokama qilindi. Samarqand shahar maorif bo'limi bilan tuzilgan musobaqa shartnomasini to'la bajarish uchun anchagina tadbirlar belgilandi.

Demak, Buxoro shahridagi ayrim maktablar tekshirilganda tarbiya ishlarini yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi, darslarni mazmunli va qiziqarli qilib o'tkazish uchun deyarli hech narsa qilinmaganligi, o'quvchilar bilan bo'lgan munosabatlardagi kamchilik aniqlanib, ularni bartaraf etish yo'llari ko'rsatildi.

Xulosa qilib aytganda, Buxoroda sovet davrida madaniy-ma'naviy sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida o'qituvchi kadrlarni shakllantirish, ilmiy muassasalarni rivojlantirish, ta'lim infratuzilmasini kengaytirishda muayyan muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritilganligini inkor etib bo'lmaydi. Lekin kommunistik mafkuraning eng katta kamchiligi va uning halokatiga sabab bo'lgan ishi – mahalliy aholining milliy urf-odatlarini, qadriyatlarini va marosimlarini milliy jihatdan kamsituvchi siyosat olib borгани edi. Vohada ta'lim tizimiga ajratilgan sarf-xarajatlar yetarli darajaga ega bo'lmay qoldi. Maktablarda o'qituvchilar yetishmovchiligi bartaraf etilmadi. Vohada oliy ma'lumotli o'qituvchilarni tayyorlovchi oliy o'quv yurtlari ochilmadi. Kolxoz ishlarida bolalar mehnatidan keng foydalanilishi ularning ta'lim olinishiga halaqit berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Бухоро ҳақиқати. 1938 йил, 29 апрель
2. Бухоро пролетари. 1938 йил. 9-апрель
3. Бешим Мирзакулов. Бухоро тарих зарварақларида. (2-китоб). Дурдона. Бухоро. 2018.

4. Коммунист журналы. 1938. 2-3 сон. 60-б.
5. Компартия Узбекистана в годы предвоенных пятилеток. Летопись событий. Ташкент. 1977.
6. Правда Востока. 1938. 5 июля.
7. Т. Рахимов. XX асрнинг 30-йилларида Ўзбекистондаги ижтимоий ва маданий ҳаёт. Бухоро, 2011.
8. Ф. Хўжаев. Асарлар. Тошкент. Фан. 1978. 2-том.
9. Хўжаев Ф. Танланган асарлар. Том 2. –Тошкент, 1978.
10. ЎзМА, 88-жамланма, 9-рўйхат, 310-йиғма жилд, 180-варақ
11. ЎзМА, Р-95-жамланма, 4-рўйхат, 403-йиғма жилд, 25-варақ.
12. Ўқитувчилар газетаси. 1940. 23 октябр. 33 (476).
13. Ўқитувчилар газетаси. 1940. 18 ноябр. 36 (479).
14. Қизил Ўзбекистон. 1932, 29, 30 октябрь.
15. Қизил Ўзбекистон газетаси. 1938, 17 апрель.